

**ISLOM DINIDA ODOB-AXLOQ VA MA’NAVIY-MA’RIFIY  
MASALALARGA OID QARASHLAR**

**Saparova Gulbaxar Aytbaevna**

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Kalit sózlar:** *odob, axloq, ma'naviyat, ma'rifat, diniy qadriyatlar, xulq-odob, fazilat, isлом, e'tiqod, mehir, inson, hurmat*

**Ключевые слова:** *нравственность, мораль, духовность, просвещение, религиозные ценности, манеры, добродетель, ислам, вера, доброта, человек, уважение*

Odob masalasi Islomda o'ta muhim o'rinni tutadi. Chunki Alloh taologa qurbat hosil qilishda odobning o'rni juda muhim. Beodoblik barcha narsani, jumladan, amalni ham, qalbni ham, tilni ham, boshqa barcha urinishlarni ham buzadi.

Odobsiz odam biror narsaga erishishi, jamiyatda yaxshi o'rinni topishi mumkin emas. Odobsiz kishi hatto boshqalar bilan aloqasi, munosabatlarini ham yaxshilay olmaydi.

Prezidentimiz o'z nutqlarida: Islom dinining sofligi, bag'rikeng din ekanligini aytib, bu din tinchlik dini ekani, odamlarni o'zaro tinch va totuv bo'lib yashashlikka chorlovchi din ekanini bildirib, bu dinimizni azaliy qadriyatlarni asrab-avaylashga da'vat qildilar. Yana bir muhim so'zlaridan biri shu bo'ldiki, ulug' allomalarimizdan biri, vatandoshimiz Imom Buxoriy islam dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida dunyoga tan olingan ulug' zot ekanligi, u zotning boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, islam to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro markazini tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligini ta'kidladilar. [1]

Shuning uchun ham tasavvuf ahlining qoidalaridan birida: "Odob bo'limganicha, Haq va xalq bilan sayri suluk bo'lmas", deyilgan. Shuning uchun ham mashoyihlar: "Kim nimaga erishsa, faqat odob bilan erishadi. Kim nima bilan qulasa, faqat beodoblik bilan qulaydi", deganlar.

Yaxshi odob aslida nafsnинг kamolotga etgani, uning intizomliligi, jilovlangani va yaxshilikda ekanining alomatidir. Aksincha, beodoblik nafsnинг hali poklanmagani, jilovlanmagani va intizomda emasligi alomatidir.

Odob ikkiga: nazariy va amaliy jihatga bo'linadi. Odob oldin nazariy jihatdan o'rganiladi va keyin unga amal qilinadi. Fikr yuritib ko'radigan bo'lsak, odobning doirasi shu darajada kengki, oddiy narsalarga nisbatan bo'lgan odobdan boshlab, to barcha narsalarning Robbiga nisbatan bo'ladigan odobgacha bor.

Islomda odobning yaxshilikka chaqirish ma’nosi insonga bog’langan barcha narsalarda namoyaon bo’ladi, yani musulmon insonning o’zi bilan bog’liq barcha narsaga odob bilan-yaxshilik yuzasidan muomala qilishi yo’lga qo’yilgan.

Bu muomalalar jamodot-jonsiz narsalardan boshlanadi. Keyin nabotot olamiga, so’ngra hayvonot olamiga o’tadi, so’ngra esa insoniyat olami, farishtalar olami va haqozo olamlarni qamrab oladi. Islomdagi odoblar musulmon insonning o’z nabiysi va robbiga ko’rsatadigan odobi ila toj kiyadi, kamolga etadi. [2]

Mana shunday keng doiradagi sharaflı odoblarga amal qilish avvalo kishining o’zi uchun foydalidir. Har bir narsada dinimiz ko’rsatgan odobga amal qilsaq, avvalo bu dunyomiz uchun, asosiysi, oxiratimiz uchun yaxshilik kasb qilgan bo’lamiz.

Odobning ta’rifi. Tilimizda “odob” tarzida talaffuz qilinishga odatlanib qolingga arabcha “adab” so’zi aslida yaxshilikka chaqirishni anglatadi, u “ma’daba” o’zagidan olingan. Ma’daba esa odamlarni yaxshilikka, ma’naviy ziyofatga chaqirishni anglatadi. Odob ham odamlar doimo da’vat qilinadigan ma’naviy “ma’daba”, yani ziyofat bo’lgani uchun shu nomni olgan. Demak, odob yaxshilik demakdir. “Falon kishi odobli ekan” deyilgani o’sha odamning yaxshiligi ko’p ekan, deganidir.

Abu Muhammad “Kitobul Vo’iy” asarida: “Odob odamlarni maqtalgan narsalarga chqirgani uchun odob deb nomlangan”, deydi. Abu Zayd rahmatullohi alayhi: “Odob fazilatlardan biriga eltuvchi yaxshi urinishga ishlatiladigan nom”, degan.

Odobning quyidagicha ta’riflari ham kelgan: “Maqtovga sazovor so’z va amalni ishlatish, qilish odobdir”, “Qaramli axloqlarni ushslash odobdir”, “O’zingdan kattani ulug’lab, o’zingdan kichikka mehr ko’rsatishing odobdir”. Shu va shunga o’xshash ta’riflar to’planganida, Islomda ko’zlangan “odob” ma’nosi yuzaga keladi.

Muhammad Zehniy aytadi: “Fazilat naslu nasab bilan emas, balki odob bilan topiladi”.

Abu nasr Forobiy: “Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog’i, yaxshi tarbiya olmog’i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo’lmog’i kerak”. [3]

Dinning mukammal deb rozi bo’lingani to’g’risidagi xabar faqat o’sha zamon musulmonlari yoki umuman, musulmon ummati uchungina emas, balki butun insoniyat uchun katta sharaf va bashorat edi. Bu ulkan xursandchilik xabari insoniyatning uzoq tarixi davomida saodat izlab qilgan harakat va urinishlarga toj kiydirib, go’zal natijalar bergen edi.

Alloh taolo Moida surasida marhamat qiladi: “Bugungi kunda sizga diningizni mukammal qilib berdim. Sizga ne’matimni batamom qildim. Va sizga Islomni din deb rozi bo’ldim”. (3-oyat)

Insonlarni yaratgan xoliqi Allah taolo uni asta-sekin tarbiya ham qilib bordi. Barcha avlodlarga Islomni din qilib bergen bo’lsa ham, har zamon va makonga o’ziga xos shariat berdi. Ilk payg’ambar Odam Atoga berilgan shariat o’sha davrdagi sodda hayotga mos va o’sha zamon voqe’ligini hisobga olgan sodda shariat edi. Keyingi davrlarda ham Allah

taolo huddi shu asosida har zamonning, makonning va jamiyatning o'ziga xos holatlarini e'tiborga olgan holda shariatlar yuborib turdi.

Tabiyiki, keyin kelgan shariat oldingisidan mukammalroq bo'lar edi. Avvalgi payg'ambarlar o'z qavmlarigagina yuborilardi. Ularning payg'ambarliklari, shariatlari ma'lum muddatga, ma'lum makonga va ma'lum jamiyat yoki qavmga xos edi. Shu tariqa ko'plab payg'ambarlar, shariatlar yuborildi.

Nihoyat, insoniyat ayni kamolga etgan paytida Alloh taolo payg'ambarlarning oxirgisi Muhammad alayhissalomga samoviy kitoblarning so'nggisi Qur'oni karimni nozil qildi va u orqali jamiki insoniyat uchun har zamon va har makonda salohiyatlari Islom shariatini joriy etdi. Bu esa insoniyat uchun ulug' sharaf edi.

Mazkur ishlarda shariat hukmiga amal qilganlar Allohnинг amriga itoat etgan bo'lishadi. Kim Islom shariatini o'z hayotiga dastur qilib olsa, ilohiy dasturni, barkamol qo'llayotgan bo'ladi. Uning aqiydasi komil, ma'naviy hayoti barkamol bo'ladi. Ta'limtarbiyasi, odob-axloqi, ijtimoiy hayoti, turli aloqalari kamoliga etgan bo'ladi. Ikki dunyodagi baxt-saodati to'kis bo'ladi.

Borliqni yaratgan Qodiru Zuljalol shu borliqning xalifasi etib insonni ham yaratgan. U o'zi yaratgan borliqda O'zi yaratgan odam qanday dasturga amal qilib yashasa, ikki dunyo saodatiga erishishini ham O'zi yaxshi biladi. Azaliy va chegarasiz ilmi ila bandalari uchun rioya qilinishi lozim bo'lgan odoblarni ham joriy qilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra, farzand ota-onasi zimmasidagi omonat bo'lib, ular bu omonat haqida masu'l dirlar. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik ulkan hato, omonatga hiyonat va kishi dinining nuqsonidir. Ota-onasi farzandining birinchi murabbiyidir.

Qur'oni karimda oila ahliga e'tiborning qnchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi: "Ey mo'minlar, sizlar o'zlariningizni va ahlioilalariningizni o'tini odamlar va toshlar bo'lgan do'zaxdan saqlangizki, u duzax ustida qattiqdil va qattiqqo'l, Alloh o'zlariga buyurgan narsaga otoatsizlik qilmaydigan, faqat o'zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur". (Tahrim, 6-oyat)

Har qanday tarbiya, xususan, nasiyhat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi - bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga etkazishdir. Ota va onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e'tibor bermagan kishi oradan yillar o'tgach, uysiz, oilasiz qoladi.

Abu Hamid G'azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: "Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va syratdan holi gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga etsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergen har bir kishi sherikdir. Agar bola e'tiborsiz

tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va haloq bo'ladi. Bunda gunoh yaki shu ko'yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi", deydi.[4]

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko'proq himoya qilmog'i kerak. Odobu tarbiya vositasida yaxshi xulqlaarni o'rgatish, yomonliklardan qaytarish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg'otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi. [5]

Odob-axloq egasi bo'lувчи инсон, eng avvalo, о'зининг юриш-турishi, муомала маданийати билан хайот кечиришда, оила барқарорлигидаги намуна бо'лиши кераклигини буюк аллома Abu Rayxon уqtiradi.

Ibn Sino to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishslash, halollik, insofli va adolatli bo'lish, hushmuomala va shirinsuxanlikni odob qilish, nafsga berilmaslik, fozillar suhbatidan bahramand bo'lish, kttalarning izzatini joyiga qo'yish, kichiklarga shafqatlilik, samimiyo do'stlik, muhtojlarga yordam berishni unutmaslik, nodonlarga nasihat, maslahat berish kabi fazilatlarni barcha ezgulikning asosi ekanligini ta'kidlaydi.[6]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson odobi bilan go'zaldir. Odob s'ozining ma'nosi nihoyatda keng va bapoyondir. Inson odobi bilan tabiyatdagи boshqa mavjudotlardan farq qilib turadi. Kishi qancha yoshga kirmasin, to hayotdan ko'z yumguncha tarbiyaga, odobga, axloqqa muhtojdir. Bilimli, ilmli odam bo'lishi mumkin, ammo odamning odob-axloqi talab darajasida bo'lmasligi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Mirziyoev Sh. Islom dinini muhofaza qilish. T.2016 yil 18 oktyabr.
- 2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (Ijtimoiy odoblar kitobidan). 18.08.2017
3. Abu nasr Forobi. Baxt saodatga erishish haqida. Risolalar. T. 2002.
- 4.Abu Xolik Muhammad al-G'azzoliy. Ihyo ul-ulum ad-din. 1-kitob. T.Movarounnahr. 2003.
- 5.Saidov I. Odob-axloq –inson siynati.
- 6.Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar. T. Fan.1987.